«TASDIQLAYMAN»
«Biznesni rivojlantirish banki» ATB
Boshqaruvi raisining
birinchi o'rinbosari v.b.

_____ A.A. Muratov
«06» _____ 2024 y.

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 282-uy manzilda joylashgan bank binosini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent - 2024 yil

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Tashkilotchi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
3.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 282-uy manzilda joylashgan bank binosini joriy ta'mirlash ishlari
4.	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarori, , O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevraldagi Farmoishi, bank Kuzatuv kengashining 2024 yil 14 fevraldagi 5-sonli qarori, «Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning ichki tartibi, Bank Boshqaruvining 2024-yil 23-apreldagi № 90-sonli qarori.
5.	Xizmatlarni bajarish bo'yicha talablar	Loyiha-smeta hujjatlarida (ilova qilinadi) ko'rsatilgan ishlarni to'liq va sifatli bajarish talab etiladi
6.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar., Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011
7.	Tanlash ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar	Tanlash ishtirokchisining 1 nafardan kam bo'lmagan oliy ma'lumotli quruvchi muhandis mutaxassisi mavjudligi, lshtirokchining hisob raqami mavjud bo'lgan tijorat bankida muammoli kredit qarzdorliklari hamda kartoteka-2 bo'yicha qarzdorliklari mavjud emasligi
8.	Qo'shimcha ma'lumotlar	Tanlash ishtirokchilari tanlash predmetining xarid hujjatlari (bajariladigan ishlar) bilan tanishib chiqishga va xarid jarayonida murojat qilishga haqlidirlar. Tanlov hujjatlarida bajariladigan ishlar qiymati, narx taklifini ochiq taqdim etgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtiriladi.
9.	Tanlov predmeti boshlang'ich qiymati va Tanlov savdolarida qatnashish shartlari	Bajariladigan ish va ko'rsatiladigan xizmatlar narxi 596 139 555,0 (Besh yuz to'qson olti million bir yuz o'ttiz to'qqiz ming besh yuz ellik besh) so'mni (QQS bilan birga) tashkil qiladi. Ishlar (xizmatlar) uchun to'lov O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
10.	To'lovlarni amalga oshirish	- shartnoma rasmiylashtirilganidan so'ng oldindan to'lov amalga oshirilmaydi.; - bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotnoma hisob-faktura buyurtmachi va pudrat tashkiloti tomonidan imzolangandan so'ng obyekt qiymatining 95% miqdorigacha bo'lgan mablag' 5 (besh) ish kuni ichida bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun to'lov amalga oshiriladi. - qolgan 5% miqdoridagi mablag' obyekt bo'yicha ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomalari imzolangandan so'ng 12 (o'n ikki) oy muddat ichida kamchilik va nuqsonlar aniqlanmagan taqdirda pudratchiga to'lab beriladi. - Kafolat muddati: ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomalari imzolangandan so'ng 12 (o'n ikki) oy
11.	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar.

12.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi
13.	G'olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
14.	Ishtirokchilaming tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 363) M. Umarxodjayev
15.	Baholash mezoni	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari boyicha baholanadi.

Ma'muriy xo'jalik departamenti direktori **Sh. Maxmudov**